

ЎЗБЕКИСТОННИНГ TASHQI SIYOSATIDA O'RTA OSIYO MINTAQASIDAGI DAVLATLAR BILAN HAMKORLIK TARIXI

Sobirov Abbosbek Kozimjon o'g'li

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Abdullayev Bekzod Xusniddin o'g'li

O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Abstrakt: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy hamkorlikni qo'shni davlatlar bilan yo'lga qo'yishi hamda ushbu hamkorlikning O'zbekiston hamda unga qo'shni bo'lgan mamlakatlar hisoblangan Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg'oniston uchun ahamiyati davriy matbuot manbalari hamda ilmiy manbalar asosida, ushbu mavzuning tarixiy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Diplomatiya, hamkorlik, qo'shnichilik, logistika, iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье рассматривается установление регионального сотрудничества Республики Узбекистан с соседними странами и важность этого сотрудничества для Узбекистана и соседних с ним стран – Казахстана, Кыргызстана, Туркменистана, Таджикистана и Афганистана. Освещается историческая значимость данной темы на основе источники периодической печати и научные источники.

Ключевые слова: Дипломатия, сотрудничество, соседство, логистика, экономика.

Abstract: In this article, the establishment of regional cooperation of the Republic of Uzbekistan with neighboring countries and the importance of this cooperation to Uzbekistan and its neighboring countries - Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, Tajikistan and Afghanistan Historical importance of this topic is highlighted based on periodical press sources and scientific sources.

Key words: Diplomacy, cooperation, neighborhood, logistics, economy.

Kirish

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilikni yo'lga qo'yish masalasi doimo kun tartibida bo'lib kelgan muhim masaladir. Buning ko'plab muhim sabablari mavjud. Bularga O'zbekistonning dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmasligi asosiy sabablardan biridir.

Qo'shni davlatlarning har-biri bilan olib boriladigan diplomatik munosabatlar katta ahamiyatga ega chunki ushbu mamlakatlar O'zbekiston uchun muhim bo'lgan logistik imkoniyatlarni taqdim eta oladi.

Natijalar

1991-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Qozog'istonga 25 ta tashrifi amalga oshirilgan va Qozog'iston Prezidenti O'zbekistonga 7 marotaba tashrif buyurgan. Bu esa Qozog'iston hamda O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning nechog'lik muhim ekanligini ko'rsatib bermoqda

Qozog'iston bilan ikki tomonlama hamkorlik, shubhasiz, mintaqada barqarorlikni ta'minlash va dolzarb masalalarni birgalikda va samarali hal etishga xizmat qiladi. 2005-yilgacha ikki davlat o'rtasida ikki tomon uchun ahamiyatli bo'lgan 166 hujjat imzolangan. 2004-yil O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston o'rtasidagi tovar aylanmasi 425,9 mln. AQSh dollarini, jumladan, eksport 184,7 mln. AQSh dollarini, import 241,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Ikki qo'shni davlat o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama hamkorlik, ikki davlat o'rtasida do'stlik, o'zaro yordam haqida shartnoma asosida yo'lga qo'yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Qirg'iziston Prezidenti Askar Akayevning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida Toshkentda 1992- yil 29-sentabrda Islom Karimov va Askar Akayev tomonidan imzolangan edi [1]. 1992-yil iyulda Toshkentda Qirg'iziston elchixonasi ochilgan bo'lsa, 1998-yil oktabrda esa Bishkekda O'zbekiston elchixonasi faoliyat yurita boshladi.

Islom Karimovning 1993-yilda Qirg'izistonga qilgan tashrifi davomida 1994-2000-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to'g'risida bayonot imzolandi. I. A. Karimov 1994-yil 16-yanvarda, 2000-yil 26-27-sentyabrda, 2007-yilda hamda 2013-yilda Qirg'izistonga tashrif buyurdi.

2017-yildan boshlab O'zbekiston Qirg'izistonni "China-Kyrgyzstan-Uzbekistan" temir yo'lini qurish masalasida kelishishga undashni boshlaydi. Shundan so'nggina Qirg'iziston vakillari uzoq qaysarlik yo'lidan qaytdilar. Ushbu masalada 2019-yil O'zbekiston tashabbusi bilan muloqot ishiga Turkiya qo'shildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ushbu harakatlaridan so'nggina 1992-yildan beri muzlab kelayotgan, ushbu loyiha qayta jonlandi [2].

O'zbekiston va Tojikiston xalqlari do'stligi tarix, madaniy-ma'naviy meros va ajdodlarning ezgu an'analari mushtarakligi, yaxshi qo'shniçilik munosabatlariga asoslanadi. Aslida, o'zbek va tojik bir daraxtning ikki shoxi, ikki daryoning bir irmog'i, degan ta'riflar bejiz aytilmagan. Yorug' kunlarda ham, sinovli damlarda ham ikki xalq doimo yelkama-elka turgan, bir-birini qo'llab-quvvatlab kelgan.

Ushbu ijtimoiy-tarixiy an'ana har 2 davlat milliy mustaqillikni qo'lga kiritgach, yangicha mazmun kasb etdi. O'zbekiston Tojikistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishda va uni ijobiy yechimini topishda sezilarli mavqeni egalladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1992-yil sentyabrda BMT ning Bosh kotibiga murojaatnoma yo'llab, xalqaro hamjamiyat e'tiborini Tojikiston muammolariga qaratib bu muammolarni tinç yo'l bilan hal etishga chaqirdi.

Tojikistonda tinchlik jarayonining amalga oshishi va ahdlashuvlarning barcha bosqichida O‘zbekiston rasmiy kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2000-yil 14—15-iyunda I.A. Karimovning rasmiy tashrif bilan Dushanbe shahrida bo‘lishi, E. Rahmonovning Toshkentda bo‘lishi o‘zbek-tojik munosabatlarining yangi pog‘onaga ko‘tarilishidan dalolat edi. 1998-yil yozda O‘zbekistonda Tojikiston Respublikasining madaniyat kunlari bo‘lib o‘tdi. 1995-yil Toshkent shahrida Tojikiston Respublikasining, 2000-yil Dushanbe shahrida O‘zbekiston Respublikasi elchixonasi ochilib, ular davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy aloqalarni muvofiqlashtirish yo‘lida xizmat qilmoqda. Keyingi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikistonning savdo-iqtisodiy aloqalari birmuncha rivojlandi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida Tojikistonning ulushi 2003-yilda 2002-yilga nisbatan 24,7% oshdi va 2,2% ni tashkil etdi.

Xulosa

O‘zbekiston hamda qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar faqatgina siyosiy yoki iqtisodiy manfaatlargagina asoslanib qolmay balki ko‘proq madaniy sohalar bilan ham bog‘liq. Tabiiyki ushbu yaqinlik iqtisodiy yaqinlikni ham taminlaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston Tarixi. – T.: Akademnashr 2019. –B 550.
2. Omadjon Tavakkaljon ugli Kodirjonov, & Khusanboy Madaminjonovich Muminov. (2024). LOGISTICS OPPORTUNITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN WHY FOR CHINA?. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 25, 261–264. Retrieved from <http://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/997>